



XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 25-iyun

VII-23-68-2-36-K/26

Kogon tumani

Kogon tumani mahalliy byudjetining ijrosi jarayonida maqbullashtiriladigan xarajatlar hisobiga bo'shab qoladigan mablag'larni qo'shimcha manbalari sifatida yo'naltirish hamda 1-hisobot chorak yakuni bo'yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan shakllangan va Xalq Deputatlari tuman Kengashining 05.06.2026 yildagi VII-22-56-2-36-K/26-sonli Qarorining 1-ilovasi (3-bandi)ga asosan yo'naltirilgan mablag'ni qayta yo'naltirish yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan yo'naltiriladi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 119-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2026 yil ijrosi jarayonida maqbullashtiriladigan xarajatlar hisobiga bo'shab qoladigan mablag'larni qo'shimcha manba sifatida yo'naltirish bo'yicha tuman hokimligidan takliflar Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilgan.

O'z navbatida, ushbu takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2026-yil 12-martdagi KQ-325-V-sonli qaroriga asosan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ("regulation.gov.uz") portaliga joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 119, 126-moddalari hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimining takliflari-taqdimnomasiga asosan Kogon tumani mahalliy byudjeti ijrosi jarayonida xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga bo'shab qolgan mablag'larni tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari sifatida shakllanganligi munosabati bilan ushbu mablag'lar hisobidan hamda 1-hisobot chorak yakuni bo'yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan shakllangan va Xalq Deputatlari tuman Kengashining 05.06.2026 yildagi VII-22-56-2-36-K/26-sonli Qarorining 1-ilovasi (3-bandi)ga asosan yo'naltirilgan mablag'ni qayta yo'naltirish yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar tumanda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun ilovalarga muvofiq yo'naltirishga rozilik berilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda tuman G'aznachilik xizmati:

amaldagi budjet qonunchiligi talablari asosida maqbullashtirilgan xarajatlar hisobiga bo'shab qolgan mablag'larni tuman mahalliy budjetining 2026-yil qo'shimcha manbalari sifatidayo'naltirish yuzasidan tegishli o'zgartirishlarni belgilangan tartibda kiritish;

ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish, iqtisod qilingan mablag'larni tuman budjetiga qaytarish bo'yicha takliflarning kiritilishini ta'minlash topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha birinchi o'rinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i hamda ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet. iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish. investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



**TURSUNOVA
XURMAT
TOSHEVNA**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 25-iyundagi
VII-23-68-2-36-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Kogon tumani mahalliy byudjeti ijrosi jarayonida maqbullashtirilgan
xarajatlar hisobiga bo'shab qolgan mablag'lar hisobidan amalga
oshiriladigan tadbirlar.**

mln.so'mda

№	Tadbirlar nomi	Yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori	Mablag' oluvchi nomi
1.	“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oirish bilan bog'liq xarajatlarga, ishlar yuzasidan vujudga kelgan qarzdorliklarni qoplash	400,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
2.	Tuman hududidagi obodonlashtirish-ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq yoqilg'i-moylash xarjatlariga, olingan yomm maxulotlari sababli vujudga kelgan qarzdorliklarni qoplash	300,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
3.	Tuman hududidagi obodonlashtirish-ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq ish quollarini xarid qilish xarjatlariga	300,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
4.	Boshqarma balansida mavjud maxsus texnikalarni joriy ta'mirlash bn bog'liq bajarilgan ish-xizm yuzasidan vujudga kelgan kreditor qarzdorliklarni qoplash xarajatlariga	165,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
5.	Tuman hududidagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq xarid qilingan gul ko'chatlari xarajatlariga	100,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
JAMI		1265,0	x

** O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliyabosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.*

Kogon tuman mahalliy budjetining 1-hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan shakllangan va Xalq Deputatlari tuman Kengashining 05.06.2026 yildagi VII-22-56-2-36-K/26-sonli Qarorining 1-ilovasi (3-bandi)ga asosan yo'naltirilgan mablag'ni qayta yo'naltirish yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar

T/r	Mablag' oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Asosi	Ajratilgan mablag'lar miqdori (mln so'm)
1	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyatiga, shu jumladan Kogon tumaniga kutilayotgan tashrifi munosabati bilan tuman hududidagi mahallalarda olib borilgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ish-xizmatlarini hamda infratuzilmani yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 12.03.2026 yildagi KQ-325-V-sonli qarori, 20-bandi	523,911
Jami		x	x	523,911